

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**DEHQONOVA MAXSUMAXON SHAVKATOVNA**

**XX ASR 80-90-YILLAR O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI  
TENDENSIYALARI VA MUAMMOLARI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the doctor (DSc) sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Dehqonova Maxsumaxon Shavkatovna**

XX asr 80-90-yillar o‘zbek adabiy tanqidchiligi tendensiyalari va muammolari.....3

**Dekhkonova Maksumakhon Shavkatovna**

Uzbek literary criticism of the 80s-90s of the 20 th century trends and problems.....35

**Дехканова Максумахон Шавкатовна**

Узбекская литературная критика 80-90-х годов XX века тенденции и проблемы.....65

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ .....72

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**DEHQONOVA MAXSUMAXON SHAVKATOVNA**

**XX ASR 80-90-YILLAR O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI  
TENDENSIYALARI VA MUAMMOLARI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Fil377 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Fan doktori (DSc) dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Sabirdinov Akbar Gofurovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rahmonov Bahodir Mamajonovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasulova Umida Yo'ldosh qizi**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 raqamli Ilmiy kengashning "14 may 2026-yil soat 8<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (349 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "30 aprel" kuni tarqatildi.

(2026-yil "30 aprel" daqi "28" raqamli reyestr bayonnomasi)



**G.Z.Rozikova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**R.M.Umurzaqov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

**Z.A.Rahimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchilik ilmida badiiy ijod, adabiyotning o'ziga xosliklarini tahlil hamda talqin etish muhim ahamiyatga ega. Zero, ijodiy jarayonning taraqqiyot ko'lamini badiiy asarlar tahlilisiz belgilash mumkin emas. Bunda adabiy tanqidchilik takomili va uning tendensiyalari hamda muammolarini muayyan davrlar adabiyotshunosligi misolida yoritish, jamiyatning axloqiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy takomilida amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki adabiyot va adabiy tanqidni ayro holda tasavvur etish, birini ikkinchisidan ajratib o'rganish mumkin emas.

Dunyo adabiyotshunosligida adabiy tanqidchilik, adabiy muhit, ijtimoiy-siyosiy sharoit va ijod jarayonini nazariy jihatdan uyg'unlikda o'rganishga e'tibor kuchayib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, badiiy asarlarga munosabat jarayoni, ushbu jarayondagi an'analar, muammo va yechimlarni ma'lum bir darajada anglash imkonini beradi. Adabiy tanqid ijodkor mahorati, adabiy jarayonda badiiy asarning o'rni, badiiy-estetik vazifasini baholab, nazariy asoslarini boyitib boradi. Bunday ilmiy nuqtayi nazar, ayni paytda, o'sha adabiy-ijtimoiy davr tahlillarida xolis va haqqoniy yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi. Natijada o'rganilayotgan davr adabiyotshunosligida xilma-xil tur va janrlarni, tahlil bosqichlarini yaxlit holda tadqiq etish orqali mavjud qarashlarning qiyoslanishi ishning ilmiy-nazariy ahamiyati va dolzarbligini ta'minlaydi.

Zamonaviy o'zbek adabiy tanqidchiligida XX asr o'zbek adabiyoti namoyandalariga xos adabiy-estetik qarashlarni o'rganish, ularni yangicha talablar asosida tadqiq etish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, adabiy tanqidchilikning o'ziga xosligi, vazifasi va ilmiyligini anglash uchun asarlarning yaratilish omillari, davrlararo o'zgarishga yuz tutishini izchil talqin etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak"<sup>1</sup>. Ta'kidlash zarurki, XX asr o'zbek adabiyotshunosligi, xususan, tanqidchiligi adabiy-estetik tafakkur tarixida alohida o'ringa ega. Adabiy jarayonga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan o'zbek adabiy tanqidchiligi materiallari va ularni bir-biridan farqlab turuvchi xususiyatlarni ilmiy asoslash muhim masalalardan sanaladi. Shu ma'noda, XX asrning 80-90-yillar adabiy tanqidchiligi adabiyotshunoslikda o'ziga xos davrni tashkil etadi. Bu davrda tadqiq etilgan asarlar va tahlillar adabiy tanqidchilik ilmining rivojida muhim bosqich bo'lib qoldi. Shuning uchun o'tgan asrning 80-90-yillar tadqiqotlariga xos adabiy-estetik qarashlarni o'rganish bosqichlarini tizimli tahlil etish soha rivojida alohida ahamiyat ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Adiblar xiyobonidagi nutqi. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-alisher-navoiy-nomidagi-ozbekiston-milliy-bogida-barpo-etilgan-adiblar> (murojaat sanasi: 28.11.2022.).

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>2</sup>. Tanqid ilmi uzluksiz rivojlanib borishi, tanqidiy tafakkurning taraqqiyoti, xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, tendensiya va muammolari jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlarida, xususan, University of Harvard, Yale University, Columbia University (Kolumbiya), University of Chicago, Northwestern University, Cornell University (Kornel) (AQSH), University of Cambridge, University of Oxford, University College London (Buyuk Britaniya), Sorbonne Universite (Fransiya), Goethe University Frankfurt (Germaniya), Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti (Qoraqalpog‘iston), O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universitetida keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda.

Jahon adabiyotshunosligida adabiy tanqid tadqiqiga oid izlanishlardan quyidagi ilmiy natijalar olingan: adabiy tanqid nazariyasi va qiyosiy adabiyotshunoslik bo‘yicha fundamental ishlar amalga oshirilgan (Harvard universiteti, AQSH), matn tadqiqi va tanqidiy matnlar, matn va til falsafasiga oid chuqur nazariy ishlar o‘rganilgan (Yale universiteti, AQSH), adabiy tanqidning ijtimoiy ahamiyati, siyosiy kontekstdagi talqini tadqiq etilgan (Kolumbiya universiteti, AQSH), tanqid va uning adabiy janrlarni o‘rganishga ta’siri masalasi, matnning ichki tuzilishini, shakliy elementlarini va janr qonuniyatlarini tahlil qilish kabilar tahlil etilgan (Chikago universiteti, AQSH), tanqidning matn konteksti, adabiyot va madaniyatning ijtimoiy tizimlarga ta’sirini o‘rganuvchi nazariy masalalar amalga oshirilgan (Shimoliy-g‘arbiy universitet, AQSH), zamonaviy tanqidchilik, ijtimoiy-siyosiy adabiy tanqid, nazariy tadqiqotlarni falsafa va siyosiy fanlar tutashuvi asosida talqin etish muammolari aniqlangan (Kornel universiteti, AQSH), ingliz adabiyoti, adabiy tanqidi, klassik adabiy matnlarni fundamental tahlil qilish, adabiyot tarixi, qadimgi davrdan zamonaviy adabiyotgacha bo‘lgan davr tanqidiy tafakkurning rivojlanishi kabilar tahlil qilingan (Kembridj

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.harvard.edu/>; <https://www.yale.edu/>; <https://www.ox.ac.uk/>; <https://www.sorbonne-universite.fr/en/>; <https://www.columbia.edu/>; <https://www.uchicago.edu/>; <https://www.northwestern.edu/>; <https://www.cornell.edu/>; <https://www.ucl.ac.uk/>; <https://www.goethe-university-frankfurt.de/en/>; <https://karsu.uz/uz/>; <https://www.academy.uz/>; <https://www.google.com/search?q=http://uzlit.uz/>; <https://uzmu.uz/>; <https://buxdu.uz/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

universiteti, Buyuk Britaniya), mumtoz tanqid, ritorika, adabiy janrlar evolyutsiyasi muammolari o'rganilgan (Oxford universiteti, Buyuk Britaniya), Yevropa madaniyatlari kontekstida tanqid nazariyasi masalasi tadqiq etilgan (London kolleji, Buyuk Britaniya), strukturalizm, semiotika, adabiy matn tahlilining lingvistik asoslari, fransuz adabiy tanqidchiligi tarixi, matn tuzilishi, semiotika orqali adabiy asarni tahlil qilish nazariyasi yaratilgan (Sarbonna universiteti, Fransiya), adabiyotning ijtimoiy tahlili, adabiyotning jamiyat va siyosat bilan aloqadorligi orqali tanqidiy yondashuvni shakllantirish masalasi tadqiq etilgan (Gyote universiteti, Germaniya), o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalaridagi tanqidiy qarashlarning o'ziga xosligi, adabiy tanqidiy tafakkurning mintaqaviyligi kabilar o'rganilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Qoraqalpog'iston), o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi, nazariyasi, matnshunoslik, mumtoz adabiyot tadqiqi muammolari chuqur o'rganilgan (O'zRFA), o'zbek adabiy tanqidining fundamental muammolari, milliy maktablarning shakllanishi kabilar aniqlangan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti), hozirgi o'zbek adabiy jarayonini tanqidiy tahlil qilish, adabiy janrlar nazariyasi, adabiy aloqalarga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti), mumtoz adabiy tanqid, Buxoro adabiy maktabi, fors-tojik va o'zbek mumtoz adabiyotida tanqidiy qarashlar masalasi yoritilgan (Buxoro davlat universiteti).

Jahon adabiyotshunosligida adabiy tanqid tadqiq etish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda: muammolari, matn tanqidi, 1980-1990-yillar tanqidida ijtimoiy va siyosiy muammolar, tanqidiy tafakkurning mazmuniy yangilanishlari borasidagi qarashlarni takomillashtirish, shakl va mazmunning o'zaro mutanosib ekanligini dalillash, nasr, lirika, dramaturgiya xususiyatlari va poetikasini dalillash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon va rus adabiyotshunosligida ma'lum bir davr adabiy jarayonini yaxlit o'rganish borasida qator tadqiqotlar olib borilgan. 80-90-yillar ijodkorining ilmiy-ijodiy faoliyati, adabiy-estetik dunyoqarashi, adabiy-tanqidiy asarlari, alohida adiblar ijod namunalari o'zida oid monografiya, risola, maqola va qaydlarini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Ruelle Marc De. The tangible, the local and the know: the ideology of english literary criticism. Doctoral thesis, Universite Libre de Bruxelles, 1993; Zhang Dandan. F.R.Leavis and T.S. Eliot: literary criticism, culture and the subject of English. Thesis, University of Birmingham, 2018; Култышева О.М. Творчество В.Маяковского во взаимодействии с литературным процессом 1910-1920-х годов: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – М., 2007; Абрамова О.Г. Творчество Владимира Маяковского в литературе и критике Швеции: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2013; Степина М.Ю. Н.А.Некрасов в русской критике 1838-1848 гг: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2013; Жуковский А.Ю. Т.С.Элиот как арбитр поэзии: литературная критика 1920-х-1930-х гг: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2014; Покотыло.М.В. В.В.Маяковский в оценке отечественной критики и литературоведения: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ставрополь, 2008; Крылов.В.Н. Русская символистская критика: генезис, традиции, жанры. Монография. – Казан, 2005; Чупринин С.И. Творческая индивидуальность критика и литературный процесс 1960-1980-х годов: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – М., 1993; Липныцкая Е.А. Эволюция творчества А.С.Пушкина – критика и публициста: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Архангельск, 2011; Бреева Т.Н. Литературно-критическая деятельность М.А.Волошина: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1996; Худойдодов А. Холик Мирзозода и таджикское литературоведение XX века: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Душанбе, 2015; Курбонова С.И. Абдулгани Мирзоев – исследователь истории персидского

O‘zbek adabiyotshunosligida I.Sultonov, B.Nazarov o‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi, tanqidchilikda adiblar roli, B.Valixo‘jayev o‘zbek adabiyotshunosligi tarixi, R.Tojiboyev XX asr boshlari o‘zbek adabiy tanqidchilik tarixi, I.Yoqubov, Otajon Hoshim tanqidiy faoliyati va shu davr tanqidchiligi, O‘.O‘tayeв o‘zbek adabiy tanqidchiligi va uslub masalalari, A.Rasulov 80-90-yillarda talqin muammosi, B.Yo‘ldoshev adabiy tanqidchilikda uslub va mahorat muammolari, B.Karimov XX asrning 20-yillari tanqidchiligi, Sh.Ahmedova adabiy tanqid janrlari kabi tanqidchilikning ma‘lum bir davrlari, masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar<sup>4</sup>. Shu bilan birga, adabiy tanqidchilik sohasida qator tadqiqotlar, monografiya, risola va maqolalar yaratilgan<sup>5</sup>. Lekin 80-90-yillar adabiy tanqidchiligining tendensiya va muammolari monografik ko‘lamda o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Poetika muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** XX asrning 80-90-yillarida yaratilgan dissertatsiya, monografiya, risola, maqolalarni izchil tarzda tadqiq va tahlil etish, turli qarashlarni qiyoslash jarayonida shu davrga doir muammo hamda tendensiyalarni ijtimoiy-siyosiy jarayon bilan bog‘liq holda yoritib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek adabiy tanqidchiligi genezisi, uning shakllanish tarixi, XX asrdan 80-90-yillargacha o‘zbek adabiy tanqidchiligining taraqqiyot bosqichlarini tizimli o‘rganish;

80-90-yillar adabiy tanqidchiligidagi tahlil va talqin muammolari, shu davrga doir tadqiqotlarning miqyosi, yo‘nalishlari, yetakchi tendensiyalari, yutuqlari va ilmiy ahamiyatini yangicha qarashlar asosida o‘rganish;

XX asrning 80-90-yillarida mumtoz lirika, zamonaviy she‘riyat hamda o‘zbek dostonchiligiga adabiy tanqidchilikning turli yondashuvlar asosidagi tendensiyalari va muammolarini belgilash;

---

–таджикской литературы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2007; Егоров П.А, Розанов В.В. Литературный критик: проблематика, жанровое своеобразие, стиль: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2002.

<sup>4</sup> Расулов А. Ҳозирги ўзбек танқидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси (XX асрнинг 80-90-йиллар материаллари асосида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002; Танқидчилик уфқлари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985; Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959; Тожибоев Р. XX аср бошлари ўзбек адабий танқиди тарихидан: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993; Эгамкулова Н. XX аср бошлари адабий жараёни муаммолари (1906 – 1917 йиллар ўзбек вақтли матбуоти мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021; Ўтаев Ў. Танқид ва услуб. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979; Ёқубов И. Отажон Ҳошимнинг адабий-танқидий қарашлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993; Каримов Б. Вадуд Маҳмуднинг 20-йиллар адабий танқидчилигидаги ўрни: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995; Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари (60-70-йиллар): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000.

<sup>5</sup> Каримов Н. Абдулла Қодирий замондошлари. – Тошкент: Akademnashr, 2020; Қувонов З.О. Абдуқодир Ҳайитметовнинг адабиётшунослик фаолияти: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020; Хабохунова Р. Академик Азиз Қаюмовнинг “Хамса” тадқиқиға ёндашув мезонлари //Алишер Навоий ва XXI аср. Халқаро конференция материаллари. – Тошкент, 2019.

o'zbek hikoya va qissalari tahlilidagi o'ziga xosliklar, ularga adabiy tanqidchilik munosabati hamda muammolarni aniqlash;

romanchiligimiz taraqqiyotidagi muammo, ulardagi yutuq va kamchiliklarning adabiy tanqidchilikda o'rganilishini yoritish;

mazkur davr dramaturgiyasining o'ziga xosligini hamda sohaga adabiy tanqidchilik munosabati, mustaqillik davri dramaturgiyasi xususidagi qarashlarni aniqlash;

adabiy tanqidchilikning tendensiyalari, muammolari, XX asr 80-90-yillar adabiy jarayonidagi o'rni va unga ta'sirini o'rganish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida, asosan, adabiy tanqidchilik sohasida tadqiqot olib borgan M.Qo'shjonov, H.Abdusamadov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, A.Rahimov, I.G'afurov, A.Rasulov, Y.Solijonov, N.Rahimjonov, B.Nazarov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliyev, D.Quronov, I.Haqqul, B.Karimov, U.Hamdam, adabiyotshunos olimlar A.Hayitmetov, A.Sabirdinov, I.Yoqubov tadqiqotlariga e'tibor qaratilgan.

**Tadqiqotning predmetini** XX asrning 80-90-yillarida o'zbek adabiy tanqidchiligi manbalari asosida nasr, nazm, dramaturgiyaga tanqidchilarining munosabati va adabiy tanqidchilik muammolarini aniqlash tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kompleks tahlil, sotsiologik, qiyosiy, biografik metod va germenevtik yondashuvlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilar bilan belgilanadi:

XX asr 80-90-yillar o'zbek adabiy tanqidchiligi "o'tish" va "o'zgarish" lar bosqichi sifatida tubdan yangilanishlarni yuzaga keltirganligi, xotira, esse (badiya) janrlari takomillashuvi, adabiyotda ham ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar o'z ifodasini topganligi, XX asrning 80-yillar tanqidchiligida sho'ro davri "sotsrealizm" metodi hukmronligi ijodkor hamda adabiy jarayonga salbiy ta'siri, 90-yillarda istiqloq bois adabiy tanqidchilikning sinfiy, partiyaviy yondashuvlardan xalos bo'lganligi, badiiy asarlarni baholashda xolislik va haqqoniylik, obraz yaratishda yangicha yondashuvlar kuzatilganligi asoslangan;

80-90-yillar Sharq mumtoz adabiyotida "ideal" qahramon yaratish tamoyillari mohiyatining chuqur anglana boshlanganligi, badiiy asarga qayta baholash, milliylik asosida yondashish va o'zlikni anglash, qadriyatlarni tiklash, unga badiiy inkishof mahsuli sifatidagi talqinning kuchayganligi, 80-yillar adabiy tanqidchiligida mumtoz asarlarning, asosan, shakliy jihatlari o'rganilgan bo'lsa, 90-yillardan ilmiy-adabiy matnlar to'liq e'lon qilinib, ularni tahlil va talqin etishda yuzaga kelgan hurfikrlilik asosida asar mohiyatining chuqur tahlil etilgani, mumtoz she'riyat muammolari aniqlanib, zamonaviy she'riyat badiiy-estetik, ma'no qatlamlari va shakliy jihatdan yoritila boshlanganligi isbotlangan;

80-yillar adabiy tanqidchiligida ijtimoiy yondashuv saqlanib qolgan bo'lib, tahlil va talqinda ochiqlik, oshkoralikning boshlangani, inson ruhiyati va ong osti in'ikoslarini kashf etishga doir talqinlar kengayganligi, qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik maktablarining yangicha – germenevtik tahlillar asosida jonlanganligi, bu davr adabiy tanqidida turli janr (esse, adabiy portret, tanqidiy-biografik ocherk, adabiy-tanqidiy maktub, adabiy-tanqidiy suhbat)lar takomili kuchayganligi yoritilgan;

o'rganilayotgan yillardagi nasriy janrlarni tahlil etishda ko'proq obraz ijtimoiyligiga e'tibor qaratilishi, jamiyatdagi ma'naviy inqiroz tasviri chetda qolayotgani, shaxs ichki dunyosi talqinidagi muammolar, qahramonni "mehnat kishisi" qiyofasida tasvirlash ustuvorligi, 90-yillardan jadid adabiyoti namoyandalari hayoti va faoliyati atroflicha o'rganila boshlangani, milliy romanchiligimizdagi yangilanishlar – janr, nutq, uslub, poetika masalalari adabiy tanqidchilikning o'rganish asosi bo'lganligi dalillangan;

XX asrning 80-90-yillari o'zbek tanqidchiligida dramaturgiyaga nisbatan e'tiborning sustligi, dramatik asarlarning badiiy va mazmuniy jihatdan mukammal emasligi, bu davrda ko'proq 20-60-yillar dramalarining tadqiq etilgani, shunga qaramay, dramaning janr xususiyatlari va tabiati, qahramon va xarakter masalalari nazariy jihatdan shakllana boshlangani, deyarli tadqiq etilmagan o'zbek dramaturgiyasi tadrijini chuqur o'rganish va baholashga hanuzgacha ehtiyojning mavjudligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ilmiy tadqiqotlarining tizimli holda o'rganilishi natijasida o'zbek adabiyotshunosligi, xususan, zamonaviy adabiy tanqidchilik tarixi uchun zarur ilmiy fakt hamda ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot davomida chiqarilgan xulosalar hozirgi o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyot bosqichlarini ko'rsatib, uni ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi;

"O'zbek mumtoz adabiyoti", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiyot nazariyasi", "Adabiy tanqid tarixi" kabi fanlardan yaratiladigan ishchi dastur, darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga yordam beradi;

o'zbek adabiy tanqidchiligining XX asr 80-90-yillariga xos bo'lgan oshkoralik, xolislik, haqqoniylikni bugungi kun o'quvchisi dunyoqarashi, tafakkurini shakllantirishdagi o'rni va ularning jamiyat axloqiy-estetik hamda ma'naviy-ma'rifiy takomilida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilgani, qo'llanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan adabiyotshunoslik fanining keyingi taraqqiyotini belgilashda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqotda ilgari surilgan nazariy g'oyalar "O'zbek adabiy tanqidchiligi", "Adabiy tanqid nazariyasi", "Hozirgi adabiy jarayon", "Yangi o'zbek adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi", "Badiiy tahlil asoslari" fanlari bo'yicha o'tkaziladigan izlanishlar, ilmiy yondashuvlar takomiliga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa undagi xulosa va tavsiyalardan adabiyotshunoslar, munaqqidlar ilmiy ijodini talqin qilishda, shuningdek, oliy filologik ta'limda darslik hamda o'quv qo'llanmalari yaratishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, tadqiqotdan mumtoz adabiyot, zamonaviy o'zbek adabiyoti tarixi, yangi o'zbek adabiyoti (80-

90-yillar) kabi yo‘nalishlarning yetakchi tamoyillarini aniqlashda material sifatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek adabiy tanqidchiligi mavzusida olib borilgan mazkur tadqiqot natijalari asosida:

80-90-yillarda hikoya va qissa janri bo‘yicha alohida monografik tadqiqotlar yaratilgani, 90-yillardan jadid adabiyoti namoyandalari, xususan, Cho‘lpon hikoyalariga ijobiy xulosalar berilgani, 80-yillardan keyin ham tahlilda istibdod muhitidan chiqa olmagan munaqqidlar 90-yillardan keyin romanning o‘ziga xos ifoda tarzi, shaxsni badiiy tadqiq etish, 60-70-yillar, 70-80-yillar romanlari tahlilida turg‘unlik yillarining salbiy oqibatlari, sotsialistik g‘oyalarning ta‘siridan qutula olmaslik kabilarni tahlil etgan bo‘lsa, 80-90-yillar roman janrining taraqqiyoti, milliy romanchilikka yangi yo‘nalishlarning kirib kelishi, janr poetikasi, romanda nutq va uslub poetikasi, tarixiy romanlar tadqiqi, “izm”lar ta‘siridan qutilish kabilarni asosiy tadqiq masalasiga aylangani va bu 80-90-yillar adabiy tanqidchiligining o‘ziga xos davr ekanligiga oid ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligi ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tili (o‘zbek, rus, ingliz) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 7-maydagi 01/4-1928-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlar imliy materiallar bilan boyitilgan.

XX asr o‘zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida 80-90-yillar alohida bosqichni tashkil etishi, 80-yillar tanqidchiligining o‘ziga xos jihatlari, sho‘ro mafkurasining adabiyotshunoslik taraqqiyotiga ijtimoiy-siyosiy ta‘siri, sotsrealizm prinsiplarining asarlarni xolis, haqqoniy baholashga to‘siq bo‘lgani va buning adabiy jarayonga ko‘rsatgan ta‘siri, XX asrning 90-yillarida adabiy tanqidda sho‘rolarning “g‘oyaviy zaiflik”, “feodal o‘tmishni bo‘yab ko‘rsatish”, “sotsialistik voqealikni nazar-pisand qilmaslik”, “xotin-qizlar obrazini ikkinchi planda ko‘rsatish”, “partiya rahbari obrazini yaratmaslik” kabi talablardan voz kechilgani dalillangani, bahs-munozara, erkin fikrlar ortgani ko‘rsatilganligi kabi tadqiqot xulosalaridan “2021-2023-yillarda bajarilgan F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi O‘zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 6-maydagi 01/04-226-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlar ilmiy jihatdan boyigan;

XX asrning 80-yillarida boshlangan “qayta qurish” she‘riyatni ham o‘z domiga tortib, adabiy tanqidchilik ham asarlar tahliliga ijtimoiy tomondan yondashgani, she‘riyati tahlilida ijodkor tarjimai holi, u yashagan ijtimoiy muhit, shart-sharoitni e‘tiborga olish tendensiyasi, tahlil va talqin masalasida ochiq va oshkoralik boshlangani, yozuvchining ijodiy xotirasiga bag‘ishlangan esselar, badiialar yaratilgani, inson qalbini poetik kashf qiluvchi, uning psixologiyasi, ichki

ruhiyati, sezimi, niyatini anglash kabi talqinlar paydo bo'lgani, qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik maktablarining rivojlangani, 80-90-yillarda adabiy tanqidida (esse, adabiy portret, tanqidiy-biografik ocherk, adabiy-tanqidiy maktub, adabiy-tanqidiy suhbat) janrlari takomili asoslanganligi haqidagi xulosalardan "2022-2023-yillarda bajarilgan IZ-2019081663-raqamli fundamental loyihani bajarishda "O'zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 6-maydagi 01/04-225-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlar adabiyotga doir ilmiy manbalar bilan to'yintirilgan.

XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida 80-90-yillar alohida bosqichni tashkil etishi, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar adabiyotda ham o'z ifodasini topganligi, 80-yillar tanqidchiligida sho'ro davrining "qayta qurish", "oshkoralik" haqidagi qarorlari, "sotsrealizm"ning ijodkor ustida hukmronligi adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatgani, XX asarning 90-yillarida istiqloq sharofati bilan adabiy tanqidchilikda sinfiy, partiyaviy yondashuvlardan xalos bo'lganligi haqidagi xulosalaridan M.K.Ammosov nomidagi Shimoliy-Sharqiy Federal universiteti Filologiya fakultetining 45.03.01. filologiya fakulteti o'quv dasturining "Chet el adabiyoti tarixi" akademik kursi doirasida foydalanilgan (M.K.Ammosov nomidagi Shimoliy-Sharqiy Federal universiteti Filologiya fakultetining 2025-yil 30-maydagi 654-2-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quv dasturi ilmiy-nazariy jihatdan boyitilgan;

yetuk munaqqidlar tadqiqotlarida dramaturgiyaga boshqa turlarga nisbatan kamroq o'rganilganligi, mustaqillikdan keyingi tadqiqotlarda ham bu turdagi asarlar yaratilgan bo'lsa-da, 20-60-yillar dramalari tadqiq etilgani, izlanishlar soha tadqiqi uchun yetarli emasligi ko'rsatib berilgani kabi xulosalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" radiokanalining 2023-yilda efirga uzatilgan "Adabiyot gulshani" eshittirishi dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-dekabrda 7-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirish ma'naviy-ma'rifiy hamda badiiy jihatdan boyigan, xalqchilligi ortgan.

Sharq mumtoz adabiyotidagi ijobiy qahramon va ideal qahramon tushunchasining mazmun-mohiyatini chuqur anglash boshlangani, mumtoz asarlarni yangicha yondashuvlar asosida qaytadan kashf etish, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgarib, mumtoz asarlar adabiy tanqidchilikda qayta baholanganligi, 80-yillar mumtoz asarlarni asosan shakl xususiyati 90-yillarda matn osti ma'nosi, shoirning maqsadi ochiq-oshkora tahlil etilgani kabi xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2023-2024-yillarda efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishi dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 5-maydagi 26-36-981-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirish ma'naviy-ma'rifiy hamda adabiy jihatdan boyigan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 18 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shulardan 16 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 30 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Shundan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Tadqiqot tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, o‘n bir faslni o‘z ichiga oluvchi to‘rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 262 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o‘rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek adabiy tanqidchiligining genezisi, taraqqiyot tendensiyalari”** deb nomlangan va uning birinchi faslida “O‘zbek adabiy tanqidchiligi takomili” o‘rganilgan. Sharq adabiyotshunosligida “ilmi naqd” badiiy asarni baholaydigan soha tarzida rivojlangan. Yunonchada “kritik” so‘zi bilan ifodalangan tanqid keng ma’noda “mulohaza bildirmoq”, “fikir yuritmoq” ma’nolarida qo‘llanib kelingan. Arab tilida “tanqid” so‘zi “نقد”, ya’ni “saralamoq, tanqidiy muhokama qilmoq, tanqid qilmoq”<sup>6</sup> ma’nolarida keladi. M.Behbudiy tanqid haqida “yangi maktab va muallimlari va anda o‘qulaturgon kitoblarni ma’nan taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqidur”<sup>7</sup>, degan edi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”<sup>8</sup>da tanqid (arabcha, “saralash, saylash, muhokama qilmoq”) – badiiy tanqid; keng ma’noda hozirgi badiiy jarayon muammolarini o‘rganish, yangi paydo bo‘lgan san’at asarlarini muhokama qilish, ularning mazmun-mohiyati, yutuq va kamchiliklarini ochib berish, badiiy tafakkur taraqqiyotining joriy holati va ijtimoiy did nuqtayi nazaridan baholash bilan shug‘ullanuvchi soha deb ta’rif berilgan. Aflotun, keyinchalik Arastu, Gegellarning badiiy adabiyot xususidagi mulohazalari, adabiy tanqidga “doimiy harakatdagi estetika” sifatida qarashlari adabiy-tanqid rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan. G‘arb tanqidshunosligida esa matn talqiniga ko‘proq e’tibor qaratilgan. XVIII asrlarda Yevropa adabiyotida estetik tafakkurning shakllanishi tufayli tanqid adabiy jarayonning muhim qismi sifatida ajralib chiqdi. XIX asrda Fransiyada Sh.O.Sent-Byov boshchiligidagi “biografik tanqidchilik”, Rossiyada

<sup>6</sup> Бушро. Арабча-ўзбекча луғат.Olimxon@bk.ru. (murojaat sanasi: 05.08.2023.).

<sup>7</sup> Qarang: Бехбудий М. Танқид – сараламоқдур // Ойна, 1914. – № 32.

<sup>8</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 310.

V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubov, N.G.Chernishevskiy ijodi bilan bog‘liq rus sotsiologik tanqidchiligining shakllanishi ushbu sohaning adabiy hayotdagi ahamiyati behad oshdi, maqsad va vazifalari esa tubdan o‘zgardi. Adabiy tanqid Forobiyning Arastu “Metafizika”siga bitilgan sharhlari bilan jonlandi. Shuningdek, qadimda yozuvchilar yangi yozgan asarlarini turli davralarda, yig‘in va saroylarda o‘qib berishgan, davra qatnashchilari esa ushbu asarlarning yutuq va kamchiliklarini qayd etib, ayni damda ham kitobxon, ham tanqidchi vazifasini bajarib kelganlar. Bu tanqid tarixining og‘zaki davri hisoblanadi. O‘zbek tanqidchiligi yozma adabiyotdagi ilk namunalari paydo bo‘lishi tazkirachilik maktabi shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. “Al-mo‘jam”, “Badoyi’ us-sanoye” kabi asarlar Sharq tanqid ilmi tarixini yoritishda muhim o‘rin tutadi. O‘tmish adabiyotimizda “tanqid” atamasi tushunchasi o‘rnida “naqd, mashvarat, nuqqod” so‘zlari ham ishlatilgan. O‘zbek adabiyotshunosligining tanqidiy ildizlari XI asrdan shakllana boshlagan. XI-XIII asrda Jorulloh az-Zamaxshariy, Yusuf Sakkokiy, Rashiddin Votvot kabilarning aruz vazni haqidagi asarlari, lug‘atlari XX asrgacha Sharqda asosiy manbalardan bo‘lgan. Mumtoz adabiyotimizda tazkira, manoqib dastlabki tanqid janrlaridan hisoblanadi. O‘zbek adabiy tanqidchiligining soha sifatidagi taraqqiyoti esa XV asrlarga to‘g‘ri keladi. O‘zbek adabiy tanqidchiligi XX asr boshlarida dastlab matbuotda o‘zini namoyon etdi. Jadid harakati namoyondalari o‘z g‘oyasini matbuot orqali keng yoyishdi. Bu davrda M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Sa‘diy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Elbek kabilar adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Fasl davomida o‘zbek adabiyotida zamonaviy tanqidning paydo bo‘lishi, XX asrning 10-yillari Cho‘lponning “Adabiyot nadir?” (“Sadoyi Turkiston”, 1914) va “Muhtaram yozuvchilarimizg‘a” (“Sadoyi Turkiston”, 1915), Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Tiyotr nadur?” (“Oyna”, 1914) singari maqolalari e‘lon qilinishi bilan o‘zbek tanqidi tom ma‘nodagi tarixini boshlagan. O‘zbek adabiy-tanqidiy qarashlarining shakllanishida S.Ayniy, V.Zohidov, E.Bertels, V.Abdullayev, N.Mallayevlarning xizmatlari haqida to‘xtalganmiz. Adabiy tanqidchilik rivojida O.Hoshim, I.Mo‘minov, O.Sharafiddinov, M.Shayxzoda, V.Zohidov, I.Sultonov, V.Abdullayev, G‘.Karimov, A.Qayumov, N.Mallayev, S.G‘aniyeva, H.Qudratullayevlarning xizmatlari katta bo‘lgan. Akademik B.Nazarovning ta’kidlashicha, 80-yillarga kelib adabiy tanqidchilik sezilarli darajada taraqqiy etdi<sup>9</sup>. O‘zbek adabiy tanqidchiligi XX asr boshlarida taraqqiy topishni boshlaganiga qaramay, uning nazariy asoslari deyarli sayoz edi. Tanqidchilar asosan sotsiologik metoddan qurol sifatida foydalanishgan. 80-yillarda tanqidchiligimizning nazariy manbalari yaratildi. Bu davrga qadar olib borilgan tadqiqotlar faqatgina amaliy jihatdan o‘zini namoyish etgan bo‘lsa, 1980-yillarda esa amaliy tadqiqotlar uchun nazariy manbalar to‘laqonli shakllandi, deyish mumkin. Umuman, o‘zbek adabiy tanqidchiligi mumtoz adabiyotshunoslik zaminida kamol topib, XX asrda o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarildi. Biz o‘rganayotgan 80-90-yillar adabiy tanqidchiligi esa ushbu taraqqiyot davrining

---

<sup>9</sup> Назаров Б. Адабий танқидчилик ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1982. – № 1. – Б. 3.

ma'lum bir qismini tashkil etadi. Mazkur davrni o'zbek adabiy tanqidchiligining "o'tish" yoki "o'zgarish" davri deyishimiz mumkin.

Bobning ikkinchi faslida "80-90-yillar o'zbek adabiy tanqidchiligida tahlil muammolari" tadqiq etilgan. Faslda adabiy tanqidchilikda tahlil muammosi, tahlilning talqindan farqini izohlab o'tilgan. Falsafa fanida hermenevtika sharhlash va tushuntirish san'ati, ko'p ma'noli belgi, ishoralarni hamda Gomer va qadimgi mutafakkirlar asarlarini talqin qilish ta'limoti sifatida ham ta'riflanadi. Hermenevtik an'ana diniy ilm ahliga muqaddas ("Tavrot", "Zabur", "Injil" va "Qur'on") kitobni sharhlash va tushuntirishga xizmat qilgan<sup>10</sup>. Professor D.Quronovning nuqtayi nazari<sup>11</sup> biz o'rgangan manbalar ichida ilmiy mushohadaga boyligi va zamonaviy yondashuvi bilan ajralib turadi. Tadqiqotimizda, asosan, 80-yillar tendensiyasiga e'tibor qaratilgan. Ya'ni, adabiy tanqidning ijodkorga munosabati o'rganilgan. Biz o'rganayotgan davrning tendensiyasi ham tanqidchilarning munosabatida ko'rinadi. Biz o'rganayotgan 80-90-yillar adabiy tanqidchiligining tendensiyalarini quyidagicha belgilash mumkin. 1. Ushbu davr o'zbek adabiy tanqidchiligida "o'tish" yoki "o'zgarish" davri ekanligi. 2. 80-yillarda munaqqidlarning an'anaviy tahlil yo'lidan borganligi. 3. Asar personajlarining ishchi sifatidagi qahramonliklariga e'tibor qaratilganligi. 4. 90-yillarga kelib badiiy asarga turlicha talqinlar asosida yondashish mezonlarining paydo bo'lganligi. 5. 90-yillarda badiiy asarda qahramon qalbi, ruhiyati, insoniy kechinmalarining tahlilga tortilish kuzatilganligi. 6. Adabiy tanqidchilikning inson ruhiyati, uning ma'naviy olamiga kirib borish ko'zga tashlangani. 7. Mustabid tuzum davrida ayta olmagan fikrlarini bayon qilish uchun imkoniyatlarning maydonga kelganligi.

80-90-yillar adabiy tanqidchiligi adabiyotshunos A.Rasulov<sup>12</sup> tomonidan ham o'rganilgan. Uning dissertatsiyasida adabiy tanqidchilikdagi metodologik yondashuvlarning shu davr materiallarida aks etgani, mangu asar, semiotik tahlil, uslub tahliliga e'tibor qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bizning tadqiqot ishimizda esa bu davr adabiy tanqidchiligi tahlillarida tendensiyalar va muammolarga asosiy urg'u berganimiz ishimizning farqli jihatini ko'rsatadi. 80-90-yillar adabiy tanqidchiligining o'z mezonlari va tamoyillari bo'lgan. Biz o'rganayotgan davr ham aynan shu mezonlar asosida shakllangan. "Qariyb chorak kam bir asr davom etgan sovet tuzumi davrida badiiy adabiyot ham, adabiyotshunoslik ilmi ham faqat sotsialistik realizm metodining cheklangan qoliplari doirasida ish olib borishga majbur bo'lgan edi"<sup>13</sup>. Olim sanagan badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik shu qolipda shakllanib borgan. Unga yondosh bo'lgan adabiy tanqidchilik ham badiiy adabiyotdan sotsialistik realizmning yutuqlarini izlagan. Professor Y.Solijonov ta'kidlaganidek, biz o'rganayotgan 80-90-yillargacha bo'lgan davrda sotsialistik realizm metodi adabiyot chegarasini belgilovchi mezon bo'lib qoldi. Uning nutq haqidagi qarashlarini o'rganar ekanmiz, "partiyaviylik", "sinfiylik" kishanlaridan

<sup>10</sup> Qarang: Аллаярова С. Герменевтика. – Тошкент: Extremum-press, 2017.

<sup>11</sup> Куронов Д. Талқин имкониятлари. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.

<sup>12</sup> Расулов А. Ҳозирги ўзбек танқидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси (XX асрнинг 80-90-йиллари материаллари асосида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002.

<sup>13</sup> Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002. – Б. 3.

ozod bo'lgan, sotsialistik realizm qolipidan xalos bo'lib rang-baranglashgan o'zbek adabiyotida muallif nutqining doirasi kengayganligini qayd etish joiz. 80-90-yillarni o'rganish jarayonida gazeta va jurnallarda adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikka doir ko'plab maqola va taqrizlar, adabiy suhbatlar, bahs va munozaralar e'lon qilingan. Shu jihatdan manbalar statistik jihatdan aniqlangan. Unga ko'ra: "Sharq yulduzi" jurnalida adabiy tanqidiy tahlillar 51 ta, she'riyat tadqiqi 25 ta, dramaturgiya tahlili 11 ta, mumtoz asarlar 10 ta, nasriy asarlar 13 tani tashkil etadi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida 73 ta maqola nashrdan chiqqan. Jumladan, adabiy tanqid bo'yicha 51 ta, she'riyat masalalari bo'yicha 8 ta, mumtoz adabiyot yuzasidan 7 ta, nasriy asarlar 8 tani tashkil etadi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida adabiy tanqidiy ishlar 20 ta, mumtoz asarlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar 12 ta, nasriy asarlar 13 ta, she'riyat tahlillari 23 tadan iborat. Shuningdek, 80-90-yillarda ijod qilgan tanqidchilarni ham adabiy-tanqidiy faoliyatiga ko'ra tasnif qilindi. Unga ko'ra: 1. Badiiy adabiyotga an'anaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yondashgan tanqidchilar (badiiy, g'oyaviy, ijtimoiy, falsafiy jihatlariga urg'u berish kabilar yetakchi): H.Yoqubov, H.Abusamadov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, B.Nazarov, U.Normatov, I.G'afurov, N.Rahimjonov. 2. Badiiy asarlarga yangicha qarashlar bilan, struktural nuqtayi nazardan yondashgan tanqidchilar (asarga badiiy-estetik hodisa sifatida qarash): A.Rahimov, N.Karimov, A.Rasulov, Y.Solijonov, D.Quronov, S.Meliyev, Q.Yo'ldoshev, I.Haqqul, B.Karimov, U.Hamdani. 3. Umumiy oqim davomchisi bo'lgan tanqidchilar: B.Yo'ldoshev, A.Quljonov, Q.Qahramonov, Sh.Ahmedova. Bu bizning tasnifimiz, mutlaqlikdan holi, deb bilamiz. 80-90-yillar o'zbek adabiy tanqidchiligida tahlillarni o'rganish jarayonida quyidagi muammolar aniqlangan: mafkura ta'siridan chiqqan olmaslik (ijtimoiy talab asosida ish olib borish); yozuvchining shaxsiga qarab baholash (bunda ijodkorning talanti inobatga olinmadi); yosh va iqtidorli ijodkorlarning tan olinmasligi (ularning yangiliklari qabul qilinmagan); adabiy merosga e'tibor pastligi (90-yillargacha saqlanib qolgan); mustaqillik davri boshlaridagi ikkilanishlar (so'z erkinligi boshlanganiga qaramay, hadikning saqlanib qolishi). Umuman olganda, 80-90 yillar tanqidchilarning badiiy asarga munosabati, tahlillar orqali shu davr adabiy tanqidchiligidagi hukmron g'oya, muammo, tendensiyani anglab olish mumkin. 1980-1990-yillar o'ziga xos murakkab davr bo'lib, sho'ro mafkurasi ta'siri ketmagan, mustaqillik tanqid uchun yangilikka yo'l ochgan davr hisoblanadi. Xullas, adabiy tanqid ijtimoiy-siyosiy voqeligida yangilanishlarning xosilasi sifatida o'zgarishlar bosqichiga kirdi. Umuman olganda, 80-90-yillar tanqidchilarning badiiy asarga munosabati, tahlillar orqali shu davr adabiy tanqidchiligidagi hukmron g'oya, muammo, tendensiyani anglab olish mumkin.

"Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor ijodi va o'zbek adabiy tanqidchiligi" deb nomlangan uchinchi faslda o'rganilayotgan davrning adabiy tanqidchiligidagi tendensiya va muammolar M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimovning qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslikka bag'ishlangan tadqiqotlari asosida qiyosiy tahlil qilingan. Qodiriyshunoslik 80-90-yillar adabiy tanqidchiligida keng o'rganildi. 80-yillardan oshkoralik boshlangan bo'lsa ham, yozuvchi asarlariga munosabatda

tanqidchilarimiz o'zlarini ehtiyot qildilar. A.Qodiriyning yozuvchilik mahorati, yuksak saviyasini M.Qo'shjonov va U.Normatov keng ommaga taqdim qildi. Mustaqillikdan keyingi yillarda ham ularning qodiriyshunoslikdagi faoliyati yangicha yondashuvlar asosida davom etdi. N.Karimov Abdullar Qodiriy asarlarini biografik metod asosida tahlil qilib, yangi yo'nalishning taraqqiyotiga hissa qo'shgani, 80-yillardan Oybek ijodiga munosabat yangilanib, qator tadqiqotlar olib borilgani, xususan, oybekshunoslik M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov hamda N.Karimov tadqiqotlari asosida taraqqiy etgani, qahhorshunoslik 80-90-yillar oralig'ida chuqur o'rganildi. Yozuvchining so'z qo'llash mahorati, badiiy saviyasi, tili, uslubi turlicha baholandi. Ammo asarlarning matn osti ma'nosi, yozuvchining ideali, ichki niyati biroz chetda qoldi. 90-yillardan keyingi tadqiqotlardagina yuqoridagilar aks eta boshladi. Shuningdek, ushbu ilmiy maktablar tadqiqida ham o'ziga xos jihatlar mavjud. Qodiriyshunoslik: Abdulla Qodiriy ijodi kashf etildi, ijodkorning badiiy-estetik ideali kabi masalalar o'rganildi, yangi tahlil metodlariga tayanildi, kitobxon ommasiga yetkazish vasifasi avj oldi. Oybekshunoslik: ijodkor shaxsiyatiga e'tibor kuchaydi, asarlari hayotiy dalillar asosida tekshirildi, ayniqsa, she'riyati qayta o'rganildi. Qahhorshunoslik: ijodkor asarlari tahlilida ziddiyatli qarashlar yuzaga keldi. Mahorati, shaxsiyati tadqiq etildi. Qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik maktablari shu yillarda shakllandi. Xarakterli tanqidchilarimizgina Abdulla Qodiriy ijodiga munosabat bildirgan bo'lsa, Oybek, Abdulla Qahhor ijodi ayni shu davrda keng o'rganildi. Shu davrda qodiriyshunoslikka tamal toshi qo'yilib, oybekshunoslik, qahhorshunoslik chuqur o'rganilgani qayd etilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O'zbek tanqidchiligi va she'riyat masalalari”** deb nomlangan. Bobning “Mumtoz lirika muammolarining o'rganilishi” deb atalgan birinchi faslida 80-yillarida ijtimoiy-siyosiy sohadagi sho'ro davrining “qayta qurish” deb atalgan yangilanishlari tufayli adabiy jarayonda muhim o'zgarishlar, xususan, mumtoz adabiyotni qayta kashf etish, mumtoz asarlarning mohiyatini teran talqin qilishga bag'ishlangan ilmiy maktablar soni ortgani o'rganilgan. “60-yillardan boshlab, adabiy tanqidchilikda yozuvchining hayoti va ijodini yaxlit olgan holda ilmiy-tadqiq qilish, umuman, tarixiy-adabiy jarayondagi san'atkorning o'rni masalasiga qiziqish kuchaydi. Natijada, mumtoz va XX asr adabiyotining ko'plab atoqli namoyandalarining ilmiy-tanqidiy biografiyasini yaratish borasida samarali ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy singari yirik mumtoz adabiyot vakillari... ilmiy-tanqidiy biografiyasini yaratish bobidagi ilmiy tadqiqotlar diqqatga sazovordir”<sup>14</sup>. Bu davrga kelib adabiyotshunoslikda shoirlar she'riyati tahlilida uning tarjimai holi, u yashagan ijtimoiy muhit, shart-sharoitni e'tiborga olish tendensiyasi kuchayadi. Ayniqsa, 80-yillardan keyin adabiy tanqidchilikda o'z so'zini ayta oladigan qator tadqiqotchilar fanning nazariy qimmatini oshishiga hissa qo'shdilar. 90-yillarga kelib esa mumtoz adabiyot namunalarini qayta baholash va asarlarni yangicha talqin etish avj oldi. Shu ma'noda, mumtoz asarlar tadqiqi an'anaviylikdan chekinmagan holda, zamonaviy tadqiq usullari bilan boyitilib, talqin etildi. Adabiyotshunos

<sup>14</sup> Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари (60-70-йиллар): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 238.

olimlar mumtoz matnlarni talqin qilish bilan birga, shoirlarning hayoti, ijodiy muhiti va uning badiiy adabiyotga ta'siri, ichki kechinmalari xususida bahs yurita boshladilar. "80-yillarning o'rtalaridan boshlab o'zbek mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalari hayoti va ijodi haqida keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan, hozirgi adabiy jarayon bilan bog'lanib ketadigan maqola, badia, risolalar yaratilmoqda"<sup>15</sup>. Adabiyotshunos olim A.Rasulov ta'kidlaganidek, mumtoz asarlarni kitobxonlar ommasiga yetkazish birinchi galdagi vazifa bo'lib qoldi. Yillar davomida qo'lyozma sifatida saqlangan, avlodlar bexabar bo'lgan xazinalarning qaytadan ko'rib chiqilishi adabiyotshunoslik fani boyishiga xizmat qildi. Xususan, A.Hayitmetov Alisher Navoiyning lirikasida orifona g'azallarni tahlil etadi. "Navodir ush-shabob"dagi falsafiy, ijtimoiy, ma'rifiy g'azallarni orifona g'azallar sifatida beradi. *Har gadikim, bo'ryoyi faqr erur kisvat anga, Saltanat zarbaftidin hojat emas xil'at anga*. Kim fano tufrog'iga yotib qo'yar tosh uzra bosh, Taxt uza ermas muzahhab muttako hojat anga. Ushbu bayt orqali podshohlarning ochko'zligi qoralanadi, ularga toshni yostiqlik qilgan darveshlarni qarama-qarshi qo'yadi. Olimning fikricha, bu satrlar Navoiyning saxiylik qarashlariga yaqin turadi, uning orifona g'azallarida real hayot masalalari yoritiladi. Olim tadqiqotida shoir lirikasidagi mulohazalar, xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi masalalarni tahlilga tortadi. "Bizda lirika tahlili Navoiydan boshlangan, – desak, xato qilmagan bo'lamiz"<sup>16</sup>. Adabiyotshunos olim I.Haqqulning "O'zbek adabiyotida ruboiy"<sup>17</sup>, "Bobir she'riyatida tanosib san'ati"<sup>18</sup>, "Tasavvuf va she'riyat"<sup>19</sup> nomli tadqiqotlarida tasavvufning Sharq xalqlari tafakkurida tutgan o'rni masalasi, tasavvuf va uning mohiyati, tasavvuf ahli, shuningdek, tasavvufning Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatiga ta'siri kabilar tadqiq etilgan. 80-yillardan tadqiqotchilar o'z maqolalari, monografiya va dissertatsiyalarida "o'tmishni ulug'lash" kabi ayblovlardan qutulib, erkinroq ijod qila boshlaganlar. 80-90-yillar o'zbek adabiy tanqidchiligida sho'ro davrining tazyiqi kamayib, mumtoz lirika ham badiiy-estetik jihatdan o'rganila boshladi. Ushbu davrda mumtoz lirika o'rganilishining quyidagi muammolari mavjud edi: mumtoz lirika tahlilida sinfiy kurash tahlili; lirik obrazlarning o'z ma'nosida talqin qilinishi; mumtoz lirikani ijodkor ichki dunyosi bilan bog'lab o'rganmaslik; lirik janrlarni badiiy-estetik jihatdan qayta ko'rib chiqish. Xullas, 80-yillarga kelib mumtoz asarlarning o'rganilishi biroz kengaygan bo'lsa, 90-yillarga kelib adabiyotshunosligimizda mumtoz adabiyotimiz namoyandalarini qayta baholash va yangicha talqin etish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Ikkinchi fasl "Zamonaviy she'riyat masalalari" tahliliga bag'ishlangan. XX asrning 80-yillariga kelib she'riyatda ham, tanqidchilikda ham qator o'zgarishlar vujudga keldi. Adabiyotshunoslar lirikani chuqur tahlil etgan holda she'rni asl

---

<sup>15</sup> Rasulov A. Hozirgi ўzbek tanqidchiligida ta'hlil va talqin muammosi (XX asrning 80-90-yillari materiallari asosida): Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2002. – B. 136.

<sup>16</sup> Hayitmetov A. Meros va ixlos. – Toshkent: Faqur Fulom nomiдаги Adabiёт va san'at nashriёti, 1985. – B. 19.

<sup>17</sup> Haqqulov I. Ўzbek adabiётida ruboiy. – Toshkent: Fan, 1981.

<sup>18</sup> Haqqulov I. Bobir she'riyatida tanosib san'ati // Ўzbek tili va adabiётi, 1981. – № 5. – B. 22-27.

<sup>19</sup> Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Faqur Fulom nomiдаги Adabiёт va san'at nashriёti, 1991.

qiymati darajasida baholay boshladilar. Shunga qaramay, she'riyatdan ijtimoiy-siyosiy yangilik izlash tahlilda yaqqol ko'zga tashlanib turdi. M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, N.Rahimjonov, I.G'afurov, N.Karimov, U.Hamdamiy va boshqalar lirik tur bo'yicha qator tadqiqotlar yaratdilar. "80-yillarning o'rtalarida "oshkoralik", "qayta qurish" jarayonlari boshlanishi bilan jamiyat siyosiy jihatdan faollashdi: siyosat haqida o'ylamagan, gapirmagan, yozmagan odam qolmadi, hisob....Va albatta, o'ta ijtimoiylashgan va publitsistik oshkorlik kasb etgan she'riyat o'sha bolta bilan naq o'q tomirni mo'ljalga oldi. Bungacha shoirlarimiz bo'g'zida qolib kelgan haqiqatning yarmisi bo'lsa ham, endi she'rlarga shiddat-la quyildi. O'zbek xalqining mustamlaka sharoitidagi fojiali hayoti, mustabid siyosat oqibatlari davr she'riyatining yetakchi mavzusiga aylandi"<sup>20</sup>. U.Hamdamiy ta'kidlaganidek, 80-yillardan boshlab she'riyatda ham, adabiyotda ham o'zgarishlar davri bo'ldi. Shoir va yozuvchilar qisman erkin ijod qila boshladi. Shunga qaramay, hali ham siyosiy bosim qutqusidan chiqa olmaslik, qat'iy tendensiyaga aylangan sotsiologik metod unsurlari ijodkorlar va tanqidchilar ishlarida ko'zga tashlanar edi. 80-90-yillar zamonaviy she'riyatning o'rganilishida quyidagi muammolar mavjud edi: she'riyat tahlilida ijtimoiy mavzularning ustuvorligi; she'riyatga poetik tafakkur mahsuli sifatida qaralmagani; tahlillarda mumtoz va zamonaviy she'riyatning uzviy aloqasiga e'tibor qaratilmagani.

80-yillar she'riyati bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan adabiyotshunos No'monjon Rahimjonovning "Davr va o'zbek lirikasi"<sup>21</sup> monografiyasida lirika taraqqiyotining xarakterli xususiyatlari tadqiq etilgan. Davr va she'riyat, mahorat masalalari yoritilgan. 80-yillarda she'riyat talqiniga bag'ishlangan Ozod Sharafiddinovning ham bir qator tadqiqotlari mavjud. Jumladan, uning "Adabiy etyudlar"<sup>22</sup>, "Adabiyot – hayot darsligi"<sup>23</sup>, "Hayot bilan hamnafas"<sup>24</sup> kabi ilmiy tadqiqotlarida she'riyat xususida jiddiy fikrlar berilgan. She'riyatga mustaqillikdan oldingi davr umumiy fonida munosabat bildirilgan, tanqidchilarning "majburiy fikrlar kiritish"i davr kamchiliklari ochib bergan bo'lsa, keyinroq istiqloq sharofati bilan inson ruhiyati va uning ichki olami, inson "meni"ga keng izn berildi. Shoirlarning ijod namunalari mundariyasi xilma-xil bo'lgani kabi, unga munosabatlar ham xilma-xil bo'lishi munaqqidlarimizning chiqishlarida aniq ko'zga tashlandi. Xususan, N.Karimov, N.Rahimjonov, U.Hamdamiy she'riyatning nozik qirralarini xolisona baholab, mustaqillik davri adabiyotshunosligida she'rlarning ta'sir manbalari, shakl va mazmun borasidagi o'ziga xosliklar, jahon andozalari asosidagi ijod namunalari ekanligini chuqur yoritib berdilar. Shuningdek, shu davr tanqidchiligida she'riyat boshqa janrlardan ko'ra jiddyroq, salmoqliroq o'rganildi.

Bobning uchinchi fasli "O'zbek dostonchiligining adabiyotshunoslikda o'rganilishi"ni tadqiq etishga bag'ishlangan. XX asr so'nggi choraklarida o'zbek

<sup>20</sup> <https://kh-davron.uz/yangiliklar/ulugbek-hamdamiy-70-yillar-avlodi-she'riyati-xurshid-davron.html> (15.07.2022).

<sup>21</sup> Раҳимҷонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979.

<sup>22</sup> Шарафиддинов О. Адабий этюдлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1968.

<sup>23</sup> Шарафиддинов О. Адабиёт – ҳаёт дарслиги. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

<sup>24</sup> Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983.

dostonlari shakl va mazmun jihatdan har tomonlama badiiy taraqqiy etdi. Adabiy tanqidchilikda 80-90-yillar o'zbek dostonchiligi bo'yicha ham bir qator tadqiqotlar baholandi. Boshqa janrlarga nisbatan biroz kam o'rganilgan bo'lsa-da, shu davr adabiy tanqidchiligi mahsuliga aylandi. 80-90-yillar dostonchiligining o'rganilishida quyidagi muammolar mavjud edi: asosan, sotsialistik realizm metodi asosida tahlil qilingan; dostonlar mavzu va g'oya jihatidan o'rganilgan; badiiy yangilik sifatida ko'rilmagan. Keyinchalik o'zbek adabiyotiga poema atamasining kirib kelishi avvaldan mavjud bo'lgan doston janrini zamonaviy variantiga aylandi. XX asarning 80-90-yillarida turli mavzudagi dostonlar yozilishi bilan birga, yaratilgan dostonlarni tahlil qilish tendensiyasi ham jonlandi. O'zbek adabiy tanqidchiligida lirik turning barcha janrlari nazariy jihatdan o'rganilgani kabi o'zbek dostonchiligi ham adabiy tanqidchilik e'tiboridan chetda qolmadi. "Saksoninchi yilda dunyoga kelgan o'zbek shoirlarining salmoqli dostonlariga xos bo'lgan umumiy belgilarni topishni istasak, buni avvalo, dostonlarning qahramonlaridan qidirmoq kerak. Bu qahramonlarga teran nigoh bilan qaraganda, ularni yana Gomer ifodasi bilan aytadigan bo'lsak, "ma'rifatli qalb"ga ega bo'lgan shaxslar ekanligi ravshan bo'ladi"<sup>25</sup>. Shu ma'noda, adabiy tanqidchilikda dostonlar qahramonlari doimo asosiy tahlil markazida bo'lgan. O'zbek adabiyotida dostonlar bo'yicha N.Rahimjonov keng tadqiqot olib borgan. Uning "Lirik poema"<sup>26</sup> mavzusidagi dissertatsiyasi XX asr dostonchiligi haqida ma'lum tasavvur bera oladi. Tadqiqotda lirik poemaning janr xususiyatlari, lirik poemaning taraqqiy etishidagi manbalar, davrning yetakchi tendensiyalarini dalillash maqsad qilib olingan. I.G'afurov tahlillarida A.Oripovning "Hakim va ajal" dostonidagi yuksak ma'rifat egasi Ibn Sino, E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonida erkinlik va tenglik uchun isyon qilgan ma'rifat egalari, Sharq inqilobiy shoiri Nazrul Islom, B.Boyqobilovning "Shukuhli karvon" dostonida mutafakkir Navoiy siymosi, Muhammad Alining "Boqiy dunyo" dostonida ma'rifatparvar muallim va shoir, R.Bobojonning "Yusuf va Zulayho" dostonida jaholatga qarshi ma'rifatli inson isyoni kabilar orqali bu davr dostonchiligining taraqqiyotini belgilab bergan. Shu izlanishlarning davomi sifatida U. Normatov<sup>27</sup> dostonnavislarning zamon bilan hamnafas qirralarini tekshiradi. O'zbek dostonchiligi shu davrga qadar hayotning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalarini keng yoritmagan. Uning fikricha, doston davr muammolari va hayot haqiqatini aks ettirishda lirika, drama, proza bilan tenglashishga harakat qilgan. E.Vohidovning "Ruhlar isyoni", "Istambul jofiasi", O.Matjonning "Gaplashadigan vaqtlar", A.Muxtor "Dol qoya", Muhammad Alining "Inqilob", I.Otamurodovning "Yarador umid otlari" kabilarni shu qatoridagi dostonlar safiga kiritadi. E.Vohidovning "Istambul fojiasi" va O.Matjonning "Gaplashadigan vaqtlar" dostonini qiyosiy tahlil qiladi. Unga ko'ra, "Istambul fojiasi"da murakkab taqdir, mukammal xarakterlar, adashgan, gunohkor shaxslar, "Gaplashadigan vaqtlar" qahramoni esa, mashaqqatli taqdir egasi, o'z davri odamlaridan yuqori fikrlaydigan oddiy inson. "Istambul fojiasi"da

<sup>25</sup> Гафуров И. Мўъжизалар ҳар куни керак // Шарқ юлдузи, 1981. – № 7. – Б. 224 - 230.

<sup>26</sup> Раҳимжонов Н. Лирик поэма (1961-1973 йиллар ўзбек поэзияси материаллари асосида): Филол. фан. канд. ... дисс. – Тошкент, 1975.

<sup>27</sup> Норматов У. Достон ва замон // Шарқ юлдузи, 1987. – № 10. – Б. 173 - 180.

lirik qahramon voqealar kuzatuvchisi, “Gaplashadigan vaqtlar”da shoir lirik qahramonning voqealarga aralashuvidan keng foydalangan. Tanqidchi yuqoridagi dostonlarda davrning dolzarb muammolariga murojaat etib, insonlar ruhiyati, hayot haqiqati va murakkab ziddiyatli vaziyatlarni talqin etish tendensiyasi kuchayganini xulosa qiladi. Yaqin yillarda D.Quvvatovning 80-90-yillar dostonchiligi haqida tasavvur bera oladigan tizimli tadqiqoti yaratildi. Dissertatsiyada XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligi poetik strukturasi, taraqqiyot tamoyillari, o‘zbek va jahon adabiyotshunosligidagi poema janriga oid ilmiy izlanishlar, janr taraqqiyoti konsepsiyalari, o‘zbek dostonlarining tarkibiy ko‘rinishlari, an’anaviy xalq va mumtoz dostonchilik yo‘nalishidagi asarlarning tabiati, mustaqillik davri dostonlari mazmuni kabi masalalar izchil yoritildi. Adabiy tanqidchilikda 80-90-yillar dostonlarining o‘rganilishini xulosalaydigan bo‘lsak, barcha janrlarda kuzatilgani kabi 80-yillar boshlarida yaratilgan doston personajlarining mehnat kishisi sifatidagi qahramonliklari ko‘kka ko‘tarilgan bo‘lsa, 90-yillarga kelib, ularning qalbi, ruhiyati, insoniy kechinmalari tahlilga tortildi.

Ishning uchinchi bobi “**O‘zbek tanqidchiligi va nasriy janrlar**” deb nomlangan bo‘lib, birinchi faslida “Hikoyalar tahlilidagi o‘ziga xosliklar” muammosi tadqiq etilgan. XX asrning 80-90-yillari o‘zbek adabiy tanqidchiligida nasriy asarlarni o‘rganish borasida yangi izlanishlar davri bo‘ldi. Hikoyalarning o‘rganilishida quyidagi muammolarni kuzatdik: ijtimoiy ahamiyatning yuqoriligi; obrazlar psixologiyasining to‘liq yoritilmagani; modernistik hikoyalarning e’tibordan chetda qolayotgani. Bu davr tanqidchiligida H.Yoqubov, M.Qo‘shjonov, I.Sulton, L.Qayumov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, I.G‘afurov, A.Rasulov, Y.Solijonov, H.Boltaboyev, D.Quronovlar asar tahlilida qator yutuqlarga erishdi. “Hozirjavob janr imkoniyatlari ayni shunday keskin burilish davrlarida ko‘zga tashlanishi, 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning avvalidagi o‘zbek adabiyoti misolida ham bu yaqqol o‘z isbotini topdi. Bu davr o‘zbek adabiyotini, asrimiz boshidagi uyg‘onish hodisasiga qiyosan, “ikkinchi katta uyg‘onish davri adabiyoti” deyish mumkin”<sup>28</sup>. Shu yo‘nalishdagi tadqiqotlardan biri tanqidchi I.G‘afurovning “Prozaning shoiri”<sup>29</sup> nomli ijodiy ocherkidir. Unda Said Ahmadning “Iqbol chiroqlari”, “Muhabbatning tug‘ilishi”, “Muhabbat”, “Sevgingga sodiqman”, “Bahor suvlari”, “Xotin”, “Mehribon”, “To‘lqinlar” kabi hikoyalari tahlil qilinadi. XX asrning 60-80-yillarida Abdulla Qahhor ijodi ko‘plab tanqidchilarning e’tiborini tortdi. Xususan, M.Qo‘shjonovning bir qator tanqidiy ishlari ham uning ijodiga bag‘ishlandi. Tanqidchi yozuvchilarning xarakter yaratish mahorati, uning shakllanishi, shu bilan bir qatorda, syujet, kompozitsiyasi muammolarini ham tahlil qildi. Tanqidchining “Hayot va nafosat”<sup>30</sup> nomli tadqiqotida Abdulla Qahhor hikoyalari munosabat bildirdi. Yozuvchining fojiviy taqdirlarni tasvirlash mahorati borasida dalillash san’atiga ham alohida to‘xtaladi. Jumladan, “Anor”

---

<sup>28</sup> Дўстмухамедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида): Филол. фан. номз. .... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 5.

<sup>29</sup> Гофуров И. Прозанинг шоири. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

<sup>30</sup> Қўшжонов М. Ҳаёт ва нафосат. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

hikoyasida siyosiy-ijtimoiy masalalar fojining yuzaga chiqishida asosiy sabab bo'lsa-da, yozuvchi buni yaqqol ko'rsatmaydi. U oddiy inson hayotidagi qiyinchilikni tasvirlash orqali uning ortida katta fojialar borligini uqtiradi. Bundan tashqari, tanqidchi yozuvchining detal orqali qahramon holatini tasvirlashiga ham e'tibor qaratadi. M.Qo'shjonovning "Abdulla Qahhor mahorati"<sup>31</sup> monografiyasida yozuvchining o'ziga xosligi, invididual ijodi, janrlardagi mahorati bo'yicha tanqidchi mulohazalari bayon etilgan. A.Qahhorni Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy kabi ustozlariga izdosh sifatida ko'radi. Hikoyalar tahliliga adabiyotshunos H.Boltaboyev yangicha yondashuv bilan qaradi. Uning "Uslubning tug'ilishi" maqolasida Zohir A'lamning uslubi, o'ziga xos ovozi tahlil qilindi. Hikoyadagi ichki uyg'unlik, yozuvchining qahramonlariga bo'lgan munosabati, tasvirdagi pozitsiyasini yuqori baholaydi. Shunga qaramay, asar poetikasiga doir kamchiliklar ham borligini qayd etadi. Q.Yo'ldoshevning<sup>32</sup> 80-yillar prozasi haqidagi qaydlarida shaxsni tasvirlash asosiy ekani, turg'unlik yillari adabiyotda muammoni ko'tarib chiqish, insonni tasvirlash asosiy maqsad deb aytilsa ham, shaxsni emas, uning mehnatini birinchi o'ringa olib chiqish, insonni ishchi kuchi deb qarash avj olgan. Yana shuni ta'kidlaydiki, 80-yillar nasriga xos bir xususiyat – badiiy jihatdan puxta bo'lmagan yaroqsiz asarlarning keskin kamayganligidir. Shaxsni tasvirlash 80-yillar prozasiga xos xususiyatlardan biridir. Munaqqid o'z fikrlarini dalillash maqsadida Sh.Xolmirzayevning hikoyalariга murojaat qiladi. Yozuvchining shaxs haqidagi qarashlari "Yashil Niva", "Ustoz", "Xumor" hikoyalariда shaxs taqdiri va shaxs qismati, uning iztiroblari, o'ylari orqali yetkazib beriladi. Uning fikricha, Sh.Xolmirzayevni shaxs ruhiyati, uning turfa tabiati, hatti-harakatlari silsilasi qiziqtiradi. Umuman olganda, tanqidchi 80-yillar nasrida yangilik sifatida kirib kelgan shaxs tasviri masalalarini tahlil etadi. XX asrning 80-90-yillarida zamonaviy adiblar tomonidan realistik metod bilan bir qatorda, modernistik metodning ham keng qo'llanilishi kuzatila boshlandi. Bu davrda (80-90-yillar), adabiyot maydoniga iste'dodli yozuvchilar guruhi kirib keldi. Hikoyanavislik esa yangi-yangi mavzular, yangi shakllar bilan boyidi"<sup>33</sup>. Ayniqsa, realizmdan modernizmga o'tish natijasini adabiyotga badiiy asarlarga yangi g'oya va yo'nalishlarning kirib kelishi kuzatilgan bo'lsa, adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilikda esa yangi yo'nalishdagi tadqiqotlar sonining ortishiga sabab bo'ldi.

Bobning ikkinchi fasli "Davr qissalariga adabiy tanqidchilik munosabati" deb nomlangan. Adabiy tanqidchilik 80-90-yillar prozasini keng tadqiq etdi. Xususan, o'zbek qissachiligi yuzasidan ham salmoqli tadqiqotlar yaratildi. Shunga qaramay, ba'zi muammolar mavjud edi: obrazning ijtimoiyligiga e'tibor qaratilishi; jamiyatdagi ma'naviy inqirozning chetda qolayotgani; murakkab shaxslarni chuqur psixologik tahliliga qadam qo'yish. O.Sharafiddinovning O.Yoqubov qissalari haqidagi tahlillari<sup>34</sup>da yozuvchining yangilikka intilganligi, hayotiylik va tabiiylik

<sup>31</sup> Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

<sup>32</sup> <https://www.natlib.uz/Yo'ldoshev-Q-Shaxsni-tasvirlash-bosh-mezon-11-03-2022/>.

<sup>33</sup> <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/zamonaviy-eron-nasrining-modernisti/> Ойдин Турдиева (murojaat sanasi: 02.11.2024.).

<sup>34</sup> Qarang: Шарафиддинов О. Истеъдод жилolari. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 206.

prinsipiga amal qilishini ta’kidlaydi. U ba’zi yozuvchilar qatori muhabbatni ikki yoshning hijroni, visol, rashk kabilarni tasvirlash bilan cheklanmagan, qissalarida muhabbat tenglik, ishonch, hurmat asosiga qurilgan. Munaqqid fikricha, yozuvchi “Tilla uzuk”, “Matluba”, “Qanot juft bo’ladi” qissalarida zamonaviy yoshlar psixologiyasidagi yangi qirralarni, ularning hayotga bo’lgan munosabatini badiiy tadqiq etadi. “Tilla uzuk”, “Matluba” qissalarida turli fikrlovchi shaxslarning muhabbat haqidagi turfa xil qarashlari va ularning oqibatida zomin bo’lgan baxt tasvirlanadi. Yozuvchi qissalarida davr ruhi chuqur ifodalab berilishi bilan birga, kitobxonga insoniylik, ezgulik kabi fazilatlaridan saboq beradi. O.Sharafiddinov<sup>35</sup> O.Yoqubovni o’zbek adabiyotining ijtimoiy-estetik mavqeini qayta mustahkamlashda jonbozlik ko’rsatgan adib deb hisoblaydi. Uning “Muqaddas” qissasida ana shu yangi tendensiyalar ifodalagan. Tanqidchining fikricha, qissada yozuvchi loqayd bayonchilikdan voz kechib, voqealar mohiyatini tadqiq etish yo’lidan borgan. O.Yoqubovning ijodidagi yangi bosqich “Muqaddas” qissasidan boshlangan. O.Sharafiddinov G’afur G’ulom qissalari<sup>36</sup> ni tahlil qilar ekan, “Netay”da o’zbek ayolining ayanchli taqdirini mahorat bilan tasvirlagani, yozuvchining butun asar davomida o’ziga xos ohangni izchil saqlay ogani, “Tirilgan murda”da esa tanbal insonning hayotga yangicha nigoh bilan qarashga o’rgatgani, qayta tiriltirgani mahoratidan dalolat berishini aytadi. Munaqqid yozuvchining “Shum bola” qissasi haqidagi xulosalarida to’laqonli xarakterlar yaratishi bilan birga, xalqning realistik tasvirini ham bera olgan. Ushbu qissa o’zbek prozasining eng baquvvat asarlaridan biri bo’lib, jahon adabiyotiga qo’shilgan ulush sifatida qarash kerak. A.Rasulov o’zining o’zbek adabiyotidagi qissalar xususida mulohazalari<sup>37</sup> da “Buxoroning jin ko’chalari”, “Jar yoqasida chaqmoq”, “Chorrahada qolgan odamlar” qissalari o’zbek prozasining eng yaxshi namunalari sifatida ko’rsatadi. Asqad Muxtor teran psixologizm, koloriti boy tilda yozsa, Tohir Malik asarlari fantastik ruhda yaratiladi. Bu asarlarning asosiy qahramoni masalasi ham keng o’rganilgan bo’lib, barcha voqealar bosh qahramonning mukammalashuvi uchun xizmat qilishi yoritiladi. U.Rasulovning tadqiqotlarida<sup>38</sup> ham 80-90-yillar qissachiligi haqida tahlillar mavjud. O’zbek qissalarida 80-yillardan milliy g’urur, e’tiqod tushunchalarini sharq islom tafakkuri asosida badiiy tadqiq etish tamoyili ko’zga tashlandi. Qissalarda yurt taqdiriga mas’ul, aloqador qahramonlar yaratildi. Xususan, Erkin A’zam, Murod Muhammad Do’st qissalariga to’xtalib, ularda davr manzarasini ichdan yoritishga harakat boshlangani, qahramon olamidagi po’rtanalarni ta’sirli ifodalash, xayol va tush motivini kompozitsion sathga singdirish usuli ortib borgani, shuningdek, qissalarda inson bajaruvchi vazifasidan fikrlovchi, o’zini taftish etuvchi maqomiga ko’tarilgan. Istiqlol adabiyotiti qissalari haqida to’xtalar ekan, yangi tasvir, yangi

<sup>35</sup> Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б 436.

<sup>36</sup> Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б 446.

<sup>37</sup> Расулов А. Эски мавзунинг янги талкини. Хаёт кўзгуси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.

<sup>38</sup> Расулова У. XX аср ўзбек киссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари): Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

qahramon, insonni murakkab mavjudot sifatida talqin etish, jahon an'analarini sintez qilish tamoyili ortgani, tarixiy haqiqatni tiklash, sho'ro tuzumini tanqidiy tahlil etish kabilar ko'zga tashlanganini qayd etadi. Mustaqillik davrida qissa janri yanada taraqqiy etdi. Dunyo tajribalarini o'zlashtirdi. Mazkur janrga yangi uslub, yangi tamoyil, yangi so'z, yangi tafakkur kirib keldi. 80-90-yillar adabiy tanqidchiligida qissalar bo'yicha bir qator tadqiqotlar yaratildi. Qissalarda ijtimoiy hayotda faol oddiy xalq vakillari tasviri, ijtimoiy muammolar yoritildi. O'rganilayotgan davr qissachiligida M.Muhammad Do'st, T.Murod, E.A'zamov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Bo'tayevlar alohida burilish yasagani e'tirof etildi.

“Romanlar tahlili masalasi” deb atalgan uchinchi faslda adabiy tanqidchilikda romanlarga munosabat masalasi yoritilgan. Adabiy tanqidchilik 60-70-yillar, 70-80-yillar romanlar tahlilida turg'unlik yillarining salbiy oqibatlari, sotsialistik g'oyalarning ta'siridan qutula olmaslik, davr kishisi ruhiyatidagi o'zgarishlar, asr kishilarining mashaqqatli yo'li, oddiy fuqarolarning qahramonga aylanishi kabilarni tahlil etgan bo'lsa, 80-90-yillar roman janrining taraqqiyoti, milliy romanchilikka yangi yo'nalishlarning kirib kelishi, janr poetikasi, romanda nutq va uslub poetikasi, tarixiy romanlar tadqiqi, “izm”lar ta'siridan qutulish kabilar asosiy tadqiq masalasiga aylandi. Roman tahlilida quyidagi muammolar mavjud edi: sotsialistik realizm talablariga mosligini tekshirish; insonning ichki olamini yetarli darajada tahlil qilmaslik; modernistik romanlar tahlilida ehtiyotkorlik. Bu 80-90-yillar adabiy tanqidchiligining o'ziga xos davr ekanligini ko'rsatib berdi. Xususan, shu davrda adabiyotshunos A.Rahimov roman janri poetikasi bo'yicha yirik tadqiqotlarni boshlagan bo'lsa, Y.Solijonov romanda muallif nutqi, muallif uslubi poetikasi yo'nalishini boshlab berdi. Umuman olganda, romanlarda poetika masalasi Farg'ona adabiy tanqidchilik maktabida shakllanib, nazariy asoslar yaratildi. Shu davrdan boshlab o'zbek adabiyotida o'tmishni ulug'lash, ajdodlarning tarixiy yo'lini avlodlarga yetkazish badiiy adabiyotning vazifasiga aylana boshladi. O.Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor”<sup>39</sup> nomli adabiy portretida “Sarob” romani tahlil qilinadi. Ayni shu mavzuda uning “Ikkinchi cho'qqi”<sup>40</sup> maqolasi ham nashrdan chiqqan. Munaqqid yozuvchining ijodiy laboratoriyasiga kirib biografik metod asosida shakllantirilgan. Tanqidchi U.Normatov ham roman janri tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy mulohazalarida janr xususiyatlarini tahlilga tortgan. Xususan, “Turmushning teran tahlili”<sup>41</sup>, “Romanning mashaqqatli yo'li”<sup>42</sup>da P.Qodirovning “Olmos kamar” romanida muallif konsepsiyasini tahlil qiladi. Unga ko'ra, muallifga xos mushohadakorlik, falsafiylikka moyillik, har bir hodisadan ma'no topishga urinish romanning o'ziga xosligini belgilagan. Mustaqillikdan keyin romanga munosabat tubdan o'zgardi. Bu yuzasidan D.Quronov va U.Normatovning suhbatlari e'lon qilindi. O'zbek romani 90-yillarga qadar asosan an'anaviy realizm yo'lidan bordi. Jumladan, Omon Muxtorning 70-80-yillarda yaratgan “Yillar shamoli”, “Egilgan bosh” romanlari shu

<sup>39</sup> Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988.

<sup>40</sup> Шарафиддинов О. Иккинчи чўкки // Шарқ юлдузи, 1987. – № 4. – Б. 183-198.

<sup>41</sup> Норматов У. Турмушнинг теран таҳлили // Шарқ юлдузи, 1984. – № 8. – Б. 172-175.

<sup>42</sup> Норматов У. Романнинг машаққатли йўли // Шарқ юлдузи, 1989. – № 7. – Б. 185-190.

yo‘nalishga mansub. Ma‘lumki, jahon adabiyoti, jumladan, romanchiligi asr boshidayoq an‘naviy realizm bilan barobar modernizm, postmodernizm yo‘liga o‘tib, janrning ifoda doirasini benihoya kengaytirgan, xilma-xil falsafiy-estetik oqimlarga tayanuvchi romanchilik maktablari shakllana boshlagan edi. Ayniqsa, absurd, ekzistensializm, mifologik va diniy tafakkur asosida hayotni, shaxsni badiiy tadqiq etish, ong oqimini kuzatish, ifodalash bobida katta tajribalar to‘plandi. Professor Y.Solijonovning “XX asrning 80-90-yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi” nomli dissertatsiyasi<sup>43</sup> da ham o‘zbek adabiyotiga o‘ziga xos yangilik sifatida kirib kelgan M.Muhammad Do‘stning “Lolazor” romani o‘rganildi. Adabiyotshunos olim A.Rahimovning “O‘zbek romani poetikasi (syujet va konflikt)”<sup>44</sup> mavzusidagi dissertatsiyasi ham mustaqillikning dastlabki yillarida olib borilgan tadqiqotlardan biridir. Nazariy xarakterga ega tadqiqotda o‘zbek romani poetikasi masalasining badiiy muammolar bilan mushtarak ekani, roman va povestning farqli chegaralari, shu bilan birga, birinchi marta badiiy asarda muallif munosabati yoritilganligini qayd etadi va o‘zining nazariy fikrlarini dalillash maqsadida Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Said Ahmad, Asqad Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov, O‘.Hoshimovlarning romanlariga murojaat qiladi. Shuningdek, faqat badiiy kashfiyot sifatida qaralgan asarlar emas, balki kashfiyot darajasiga ko‘tarilmagan romanlarda ham jiddiy yangiliklar, topilmalar bo‘lishini, roman kamchiliklaridan ham saboq olinishi kerakligini ta’kidlaydi. Professor Y.Solijonovning “XX asrning 80-90-yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi” mavzusidagi dissertatsiyasi<sup>45</sup> da ham ayni bizning tadqiqot obyektimizga oid o‘n yillik davr o‘rganilgan. Unda 80-90-yillar o‘zbek nasrida badiiy nutq tiplari, yangilanish jarayoni, muallif va qahramon nutqi, ikki ovozli va ko‘p ovozli nutqning o‘ziga xosligi olim tomonidan ilmiy dalillangan. Professorning ta’kidlashicha, 90-yillardan keyin o‘zbek nasri mazmunan, shaklan, ayniqsa, til xususiyatlari bilan yangilikka yuz tutdi; bu yillar o‘zbek romanlarida muallif nutqining vosita sifatidagi maydoni kengaydi. 80-90-yillarga kelib personaj nuqtayi nazarini ifodalovchi vositalar kengaydi, badiiy nutqning tiplari, yigirmaga yaqin turi hamda shakllari nutqiy jarayonni shakllanish bosqichiga olib chiqdi. Muallif bayoniga personaj nuqtayi nazari va ong oqimining kirib kelishi kabi jihatlar kuzatildi. Mustaqillik yillari o‘zbek romanchiligi erishgan yutuqlar sifatida nutqiy jarayonlarning yangilanganligi, syujet va kompozitsion qurilishdagi o‘ziga xosliklar, to‘la ma’nodagi fikrlovchi shaxslarning kirib kelganligi, polifonizimning yaqqol ko‘zga tashlanishi, dialogning ham shaklan, ham mazmunan yangilanganligini qayd etish mumkin.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“O‘zbek tanqidchiligi va dramaturgiya”** deb nomlanib, uning birinchi faslida “XX asr dramaturgiyasining o‘rganilishi” tadqiq etilgan. O‘zbek dramaturgiyasi XX asrning o‘ninchi yillarida shakllanishni, yigirmanchi yillardan rivojlanish bosqichiga o‘tdi. “O‘zbek

---

<sup>43</sup> Солижонов Ё. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002.

<sup>44</sup> Раҳимов А. Ўзбек романи рэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 1993.

<sup>45</sup> Солижонов Ё. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002.

dramaturgiyasi bevosita folklor an'analari zaminida shakllanganligi sababli yozma adabiyotimizda yaratilgan dastlabki dramatik asarlarning aksariyatida folklor syujetlari, motivlari, obrazlari va xalq ijodiga xos badiiy tasvir usullari yaqqol ko'zga tashlanib turadi"<sup>46</sup>. XX asr dramaturgiyasining o'rganilishidagi muammolar quyidagicha: tanqidchilar tahlillarining yetishmasligi; sahna asarlariga e'tibor pastligi; adabiy tanqidning dramaturgiya bilan aloqasi sustligi. Dunyo adabiyotida bo'lgani kabi o'zbek adabiyotida ham dramaturgiya dastlab ma'rifatparvarlik teatri yo'nalishida faoliyat boshladi. I.Sulton aytganidek, dramaturgiya aynan adabiyotga mansubligini yo'qotmagan holda sahna va ekranda ikkinchi bor tug'ilib, yashay olishida. Shu ma'noda, o'zbek dramaturgiyasi bugungacha taraqqiy etib kelyapti. Adabiy tanqid esa o'zbek dramaturgiyasi sohasining taraqqiy etishida asosiy omil vazifasini bajaradi. O'zbek adabiyotida "drama" janrining yuzaga kelishi uchun zamin vazifasini o'tagan asosiy estetik omillardan biri folklor hisoblanadi. O'tmishda yaratilgan ko'pgina folklor asarlari teatrlashtirilgan usulda ijro etilgan. Xalq raqslari, dorbozlik, masxarabozlik, qo'g'irchoqbozlik, nayrangbozlik, dostonchilik san'atida teatrga xos spetsifik belgilar mavjud edi<sup>47</sup>. O'zbek yozma dramaturgiyasi o'ninchi yillarga kelib tug'ildi va shakllanish bosqichiga o'tib, o'zining munosib namoyandalariga ega bo'ldi. Buni adabiyot tarixida o'zbek dramaturgiyasining boshlovchilari sifatida nom qoldirgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat siymolarida ko'ramiz<sup>48</sup>. M.Behbudiy, A.Avloniy, Hamza, G'.Zafariy, Fitrat kabilarning asarlari ma'rifatparvarlikni targ'ib etdi.

1920-30-yillarda G'ulom Zafariy, Fitrat, Cho'lpon, Ziyoy Said, Xurshid, Sobir Abdulla kabilar dramaturgiya sohasini rivojlantirdi. Jadid adabiyotining yetuk namoyandasi M.Behbudiy Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchilardan bo'lib milliy dramatik asar yaratdi.

1940-yillardan dramaturgiya Ikkinchi Jahon urushi va urushdan keyingi davr vazifalarini yelkasiga olgan holda rivojlanib bordi. Xalqning ruhiyatini ko'tarish, siymolarning hayotiy voqeliklari orqali qahramon inson yaratish vazifasidan kelib chiqib, H.Olimjon "Muqanna", I.Sulton, Uyg'un "Alisher Navoiy", M.Shayxzoda "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek" kabi tragediya va dramalarini yaratdi. O'zbek dramaturgiyasining keyingi davrlari Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana", "Tobutdan tovush", I.Sultonning "Imon", O'.Umarbekovning "Qiyomat qarz" pyesalari bilan boyidi. XX asr o'zbek dramaturgiyasining shakllanishi va taraqqiyotining muhim bosqichi bo'lib qoldi.

O'zbek adabiyotida XX asrda rivoj topgan adabiy tanqid Behbudiy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon kabilarning ijod mahsuli bilan boyib bordi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, dramaturgiya sohasi adabiy tanqidchilikda nasr va nazmga nisbatan biroz kam tadqiq etildi. XX asrda nasr va nazm masalalarini tadqiq va tanqid qilgan minglab maqolalar va bir qator kitoblar nashr etildi. Shunga qaramay,

---

<sup>46</sup> Турсунова Н. Ҳозирги ўзбек драматургиясида фольклор стилизацияси: Филол. фан. б. фалс. док (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 14.

<sup>47</sup> Абдурахимов Т. Ўзбек драматургиясининг шаклланиши ва таракқиетида фольклорнинг ўрни: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 26.

<sup>48</sup> Жўраев Қ. 20-йиллар ўзбек драматургияси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 39.

dramaturgiyani o'rganish oqsoq edi. Buning sababini esa dramaturgiya sohasining keyinroq paydo bo'lgani bilan yoki dramaturgiyaning o'rganilishi bo'yicha tajribalarning yetishmasligi bilan bog'lash to'g'riroq bo'ladi. H.Abdusamatovning fikricha, dramaturgiya tajribasini o'rganadigan, nazariyasini o'zlashtiradigan manba o'zbek madaniyati tarixida bo'lmagan.

Behbudiyning "Padarkush" dramasi sahna yuzini ko'rganidan so'ng taqrizlar birin-ketin bosilib chiqdi. Mana shu sahna asari dramaning o'rganilishi uchun asos bo'ldi, desak adashmagan bo'lamiz. 30-yillardan drama nazariyasi bo'yicha tanqidiy ishlar yaratila boshlandi. Miyon Buzrukning "O'zbek teatri tarixiga oid materiallar"i hamda Cho'lpon, Avloniy, Sotti Husayn, Izzat Sulton, Komil Yashinlarning dramaturgiya va teatr haqidagi mulohazalari bu sohaning o'rganilishi uchun muhim manba hisoblanadi. Bu manbalar hozirgi dramaturgiya tanqidchiligining taraqqiyi va rivoji, dramaturgiya nazariyasining shakllanishida katta rol o'ynadi. 50-60-yillarda drama tanqidchiligi ancha rivojlandi. Milliy dramaturgiya tarixi, ijodkorlar asarlari xususida qator tadqiqotlar, tanqidiy ocherklar yaratildi. L.Qayumov, O.Sharafiddinov, B.Imomov kabilarning kitoblari bunga misol bo'la oladi. "Novator san'atkor sifatida Hamza o'zbek adabiyotiga publitsistika, realistik proza va dramaturgiya janrlarini olib kiradi. Drama va teatrga murojaat qilar ekan, ulug' adib bu san'at turining ommaviyligini nazarda tutadi. ... Uning dramalarida o'tmish zamon eski aravasining chiranib g'ichirlashi va yangi zamonning otashin guldurosi baralla yangradi. "Boy ila xizmatchi", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlari" asarlari o'zbek adabiyoti va teatri san'atining ilk durdonalaridan bo'lib qoldi"<sup>49</sup>. "1943-1944-yillarda "Muqanna" (Hamid Olimjon), "Jaloliddin Manguberdi" (Shayxzoda), "Mahmud Tarobiy" (Oybek), "Ona" (Uyg'un), "Alpomish" (S.Abdulla), "Qaltis hazil" (Uyg'un), "Oftobxon" (Yashin), "Alisher Navoiy" (Uyg'un, Izzat Sulton) dramalarida xalq orzulari ko'rindi"<sup>50</sup>. Dramalar yaratilgan davrda, albatta, ularga matbuotda munosabatlar ham paydo bo'la boshladi. M.Buzruk, S.Husayn, I.Sultonlar drama bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirdi. "Cho'lpon, Hamza, Abdulla Avloniy, K.Yashin, Uyg'un, Abdulla Qahhor, I.Sultonlar amaliy-ijodiy ishlari bilan birga, o'zlarining nazariy-estetik qarashlari, fikrlari bilan drama va teatrning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar"<sup>51</sup>. Keyinchalik bu borada L.Qayumov, O.Sharafiddinov, H.Abdusamadov, B.Imomovlar ham drama bo'yicha bir qator tadqiqotlar yaratdilar. Munaqqid M.Qo'shjonov<sup>52</sup> ham dramalar bo'yicha o'z mulohazalarini bildirgan. Shukrulloning "Tabassum o'g'rilari" dramasida obrazlar xarakteri tasviriga munosabatini ifodalaydi. B.Imomov<sup>53</sup>ning N.Safarov pesalari haqidagi qarashlari shu yo'nalishdagi ishdir. Shu yillar B.Imomovning "Tragediya va xarakter"<sup>54</sup> nomli tadqiqotida dramaning janr xususiyatlari, dramada shaxs fojiasi, drama

<sup>49</sup> Раҳимов А. Ҳамза ва замонамиз // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989. – № 1. – Б. 31.

<sup>50</sup> Nazarov B, Rasulov A, Qahramonov Q, Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 2012. – B. 121.

<sup>51</sup> Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 279.

<sup>52</sup> Қўшжонов М. Ижод сабоқлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – Б. 106.

<sup>53</sup> Имомов Б. Талантнинг муҳим кирраси // Шарқ юлдузи, 1980. – № 1. – Б. 221-226.

<sup>54</sup> Имомов Б. Трагедия ва характер. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 175 б.

tabiati, voqelik va tragediya kabilar tadqiq etildi. 80-90-yillar dramaturgiyasida mavzu ko‘lami kengaydi. O‘zbek dramaturgiyasi jahon dramaturgiyasining tajribalaridan samarali foydalandi. Bu yillarda ko‘plab she‘riy dramalar yaratildi. Xususan, E.Vohidovning “Istambul fojiasi”, A.Oripovning “Sohibqiron”, U.Qo‘chqorning “Rasululloh kotibi”, R.Bobojonning “Yusuf va Zulayxo” kabi asarlari shu yo‘nalishda yozildi. Dramaturgiyaning yangilanganligi, ayniqsa, tarixiy mavzudagi sahna asarlar ko‘payganligi sezildi. Tarixga munosabat o‘zgardi. Amir Temur, Ahmad al-Farg‘oniy, Mashrab kabi ulug‘ tarixiy shaxslar haqida rang-barang janrlarda turli sahna asarlari dunyoga keldi. 80-90-yillar dramaturgiyasi shakl va mazmun tomonidan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. 80-90-yillarda yaratilgan Sh.Boshbekovning “Temir xotin”<sup>55</sup> jiddiy komediyasi ham o‘zbek dramaturgiyasining yutuqlaridan biri bo‘ldi. XX asr dramaturgiyasi adabiy tanqidchilikning e‘tiborida bo‘ldi va bu janr taraqqiyotiga ta‘sir ko‘rsatdi. 80-90-yillar, asosan, jadid dramalari o‘rganildi. O‘zbek dramaturgiyasi jahon dramaturgiyasining tajribalaridan unumli foydalanayotganiga e‘tibor qaratildi.

Bobning ikkinchi fasli “Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid” deb nomlangan bo‘lib, bu faslda mustaqillik davrida dramaturgiyaning o‘rganilishiga e‘tibor qaratiladi. Mustaqillik yillarida dramaturgiya janri tez sur‘atlarda rivojlandi. Xalq tafakkuridagi o‘zgarishlar, yozuvchilar ijodiy imkoniyati kengayganligi dramaturgiyaning ham rivojiga turtki bo‘ldi. Sohaning o‘rganilishida ba‘zi muammolar ko‘zga tashlandi: sahna asarlari tahlilining ozligi; yangi avlod dramaturglari asarlarining o‘rganilmagani. Mustaqillikdan keyingi yillar adabiyotshunoslikning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, dramaturgiyaning o‘rganilishi yuzasidan ham qator tadqiqotlar olib borildi<sup>56</sup>. Xususan, Abdurauf

---

<sup>55</sup> [https://www.ziyouz.com/books/uzbek\\_dramaturgiyasi/Sharof%20Boshbekov.%20Temir%20xotin%20\(komediya\).pdf](https://www.ziyouz.com/books/uzbek_dramaturgiyasi/Sharof%20Boshbekov.%20Temir%20xotin%20(komediya).pdf) (murojaat sanasi: 04.07. 2022.).

<sup>56</sup> Имомов Б. Драматургик маҳорат сирлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бишлашмаси, 1991; Раҳматуллаева Д. Ўзбек драматургиясида тарихий мавзу тараққиёти ва шоирлар сиймоси талқини: Санъат. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993; Намозов А. Ҳозирги ўзбек драматургиясининг комик табиати (Саид Аҳмад ва Ўлмас Умарбеков комедиялари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1994; Жўраев Қ. 20-йиллар ўзбек драматургияси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994; Абдурахимов Т. Ўзбек драматургиясининг шаклланиши ва тараққиётида фольклорнинг ўрни: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995; Тожибоева О. 80-йиллар ўзбек драматургиясининг сахнавий талқин муаммолари: Санъат. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996; Рустамова И. Ўзбек драматургиясида қаҳрамон муаммоси (70-80-йиллар): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999; Расулмуҳамедова Д. Истиклол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000; Раҳматуллаева Д. XX аср ўзбек драматургияси ва театр санъатида тарихий драма (шаклланиш ва ривожланиш муаммолари): Санъат. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2004; Шоимов А. Ҳусайн Жовид ва ўзбек драматургияси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2008; Абдулхайров Б. Миён Бузрук Солиҳов – ўзбек жадид драматургияси ва театри тадқиқотчиси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010; Солиев А. Ўзбек драматургиясида инсон талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2012; Якубов Б. Замонавий ўзбек драматургияси ва унинг сахнавий талқини: Санъат. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2019; Турсунова Н. Ҳозирги ўзбек драматургиясида фольклор стилизацияси: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2020; Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000; Абдусаматов Ҳ. Шошма, қуёш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Ганиев И. Фитрат драмалари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005; Отажонов М. Иззат Султоннинг сўнгги йиллар драматургиясида замон ва қаҳрамон концепцияси: Филол. фан. номз. дисс ... автореф. – Тошкент, 2017; Қаршиева Г. Ҳожиги Муин Шукрулло драматургиясининг ғоявий-бадиий хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс ... автореф. – Тошкент, 2008; Дадажонов О. Ўзбек ва немис маърифатчилиқ драматургиясида замон ва бадиий талқин: Филол. фан. б. фалс. док. дисс ... автореф.

Fitrat dramalari o'rganilib, uning dramaturgiyaga qo'shgan hissasi va bu sohaning taraqqiyotidagi o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Erkinlik dramaturgiya mavzularining rang-barang bo'lishiga, son va sifat jihatidan olg'a qadam bosishiga imkoniyat berdi. Istiqlol g'oyasi ta'sirida zamonaviy ruhdagi dramalar yaratildi. O.Yoqubovning "Bir koshona sirlari", U.Azimning "Bir qadam yo'l", E.Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon", A.A'zamning "Dugohi Husayniy", "Jek London hikoyasidan so'ng" kabi dramalari mustaqillik yillari dramaturgiyasini boyitdi. Shuningdek, mustaqillikning o'n yilligi davrida A.Oripovning "Sohibqiron", X.Davronning "Bobirshoh", U.Azimning "Kunduzsiz kechalar", B.Ismoilovning "Behbudiy" kabi dramalari yaratilib, dramalarda shaxs muammosi, ijtimoiy-psixologik mavzular sintezi ko'zga tashlandi. Umuman olganda, bu asarlar dramaturgiyaga yirik asarlar sifatida kirib keldi: "O'zbek adabiyoti XX asrning 90-yillarigacha mustamlaka sharoitlarini boshdan kechirdi. Istibdod faqat ijtimoiy-siyosiy hayotdagina emas, madaniy-adabiy muhitda ham hukm surdi. Shunga qaramay, mavjud ayrim sharoitlarning hayotiy ta'siri badiiy adabiyotning ichki qonuniyatlarini to'g'ri va barakali idrok etish hamda adiblar iste'dodining siyosat iskanjasida, zug'um va zo'ravonlik doirasida qolib ketmay, milliy va umumbashariy yo'nalishlardagi tinimsiz izlanishlari deyarli barcha janrdagi asarlar misolida o'zining ijobiy samaralarini berdi. Adabiy tanqid ham shu jarayonlarni boshdan o'tkazdi"<sup>57</sup>. Dramashunos H.Abdusamatovning "Shoshma, quyosh"<sup>58</sup> nomli monografiyasi ham mustaqillik yillari dramaturgiya sohasida olib borilgan ilmiy yutuqlardan biridir. Tadqiqotda O'.Umarbekovning dramaturgiya sohasidagi ijodiy faoliyati chuqur tahlil qilingan. Yozuvchining "Komissiya", "Qiyomat qarz", "Shoshma, quyosh", "Kuzning birinchi kuni", "Kurort" kabi asarlarida xarakter, konflikt, syujet, kompozitsiya, til xususiyatlari o'rganilgan. Olimning fikricha, 60-70-yillarda dramaturgiyada oz bo'lsa-da, rivojlanish sezildi. Bu rivojlanishga O'.Umarbekovning asarlari zamin bo'ldi. U dramaturg sifatida xalq hayoti muammolarini, jamiyatda yuz bergan o'zgarishlarni tasvirlab, unga o'zining munosabatini ham ayta oldi. O'z tafakkuri bilan o'zbek dramaturgiyasi ufqlarini kengaytirdi va uning rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatgani qayd etildi. "Dramalarning eng xarakterli tomoni shundaki, u nasrda ko'p kuzatilgan kitobiy tildan jonli so'zlashuv tiliga yaqinligi bilan ajralib turadi. Bu hol tomoshabin bilan qahramon o'rtasidagi masofani kamaytiradi, ko'pincha birlashtirib ham yuboradi. Shu sababdan ham drama tiliga xalqning og'zaki nutqining tovlanishlari turlicha kirib boradi. Buni yaxshi bilgan O'.Umarbekov bayonchilikdan qochishga urinadi"<sup>59</sup>. I.G'aniyevning "Fitrat dramalari poetikasi" mavzusidagi tadqiqoti<sup>60</sup> dramaturgiya bo'yicha olib borilgan katta ilmiy manba bo'ldi. Tadqiqotda Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon", "Chin sevish", "Ro'zalar", "Shaytonning tangriga isyoni" dramalarida qahramon tili, personaj nutqining individualligi, so'z

---

– Андижон, 2022; Рустамова И. Ўзбек драматургияси поэтикаси. – Фарғона: ФДУ нусха кўпайтириш бўлими, 2023.

<sup>57</sup> Nazarov B, Rasulov A, Qahramonov Q, Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 2012. – B. 371.

<sup>58</sup> Абдусаматов Х, Шошма, қуёш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.

<sup>59</sup> Абдусаматов Х, Шошма, қуёш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 17.

<sup>60</sup> Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005.

qo'llash mahorati kabi masalalar tadqiq etilgan. Olim tahlillarida dramalarning janrlarini ham belgilab bergan. "Abulfayzxon"ni psixologik fojia – tragediya, "Chin sevish" va "Hind ixtilolchilari"ni lirik drama – dilogiya, "Arslon" – psixologik drama, "Ro'zalar" – tragikomediya, "Shaytonning tangriga isyoni" – she'riy fojia sifatida ko'rsatadi. Mustaqillik yillari adabiy tanqidchilikda dramaturgiya o'rganildi. Mustaqillikdan avvalgi yillarda yaratilgan dramalar qayta baholandi. Unda obrazlarining hayotiyli va haqqoniyli, badiiy mahorat kabilar tadqiq etildi. Shuningdek, Abdurauf Fitrat dramalari o'rganilib, uning dramaturgiyaga qo'shgan hissasi va bu sohaning taraqqiyotidagi o'rni belgilandi.

## XULOSA

1. O'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida XX asrning 80-90-yillari o'zgarish va yangilanishlar bosqichi sifatida alohida o'rin tutadi. Asarga yondashuvdagi avvalgi an'analar saqlangan holda, tanqidchiligimizning yangilangan va o'zgargan nazariy manbalari shu davrda yaratildi. Shuningdek, 80-90-yillarda mafkura ta'siridan chiqa olmaslik, yozuvchining shaxsiga qarab baholash, adabiy merosga e'tibor pastligi kabi muammolar mavjud edi.

